

FORS VA DARIY TILLARIDA OTLARDA SON KATEGORIYASI

Xolida Zikrillayevna ALIMOVA

Filologiya fanlari doktori, professor

Eron-afg'on filologiyasi kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

PLURAL FORMS IN PERSIAN AND DARI LANGUAGES

Kholida Zikrillaevna ALIMOVA

Doctor of Sciences, Professor

Department of Iran-Afghan Philology

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

КАТЕГОРИЯ ЧИСЛА ИМЕН В ПЕРСИДСКОМ И ДАРИ ЯЗЫКАХ

Холида Зикриллаевна АЛИМОВА

Доктор филологических наук, профессор

Кафедра ирано-афганской филологии

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан xolidaxon66@mail.ru

UDC (UO'K, УДК): 81-23.: 372.8.

For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Alimova X.Z. Fors va dariy tillarida otlarda son kategoriyasi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild. — № 1. — B. 7-16.

<https://doi.org/10.36078/1709621706>

Received: December 20, 2023

Accepted: February 17, 2024

Published: February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Hozirgi fors va dariy tillarida otlarning morfologik jihatdan ifodalangan kategoriyalariga faqat son kategoriyasi va aniqlik artikli kiradi. Maqolada mazkur tillarda son kategoriyasi va ularning qo'llanilishiga doir masalalar o'rganilgan. Fors va dariy tillarida ko'plik son shakllarini bir tizimga solish zarurati tufayli ularning turlari hamda struktur ko'rinishlari ajratilgan. Hozirgi paytda "to'g'ri" va "noto'g'ri" ko'plik shakllari farqlanadi. Ko'plik sonning to'g'ri shakli ikkita: ان va ها suffikslari. Bulardan ها suffiksi eng ko'p ishlatiladi. Bu shakl har qanday turdagi otdan ko'plik yasay oladi. ان suffiksi cheklangan miqdorda, asosan, shaxs otlaridan ko'plik yasaydi. ها shaklining ان dan ustunligi tilning tarixiy taraqqiyoti natijasidir, aslida ان suffiksi ها ga nisbatan qadimiy hisoblanadi. Yangi fors tilining boshlang'ich davrida ان suffiksi ها ga nisbatan keng tarqalgan. Hozirgi fors va dariy tillarida ها suffiksining universalligi qayd qilinsa-da, materiallar tahlili ko'plik son shakllarini stilistik chegaralash masalasi jiddiy ekanligini ko'rsatadi. Noto'g'ri ko'plik son shakllari arab tilidan o'zlashgan. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan "noto'g'ri" termini arabcha so'zlarning "siniq" ko'plik shakliga sinonim sifatida ishlatiladi. Statistik tahlil natijalari hozirgi fors va dariy tillarida "to'g'ri" va "noto'g'ri" ko'plik shakllarining ishlatilishida ularning o'zaro sinonim bo'lib kelishi, so'z birikmalari tarkibida stilistik farqlanishi yoxud semantik tafovutga ega bo'lishini ko'rsatadi. Shuningdek, siniq ko'plikdagi arabcha so'zlarning mavhum yoki boshqa ma'noli otga aylanishi kuzatiladi.

Kalit so'zlar: fors va dariy tillari; son kategoriyasi; "to'g'ri" ko'plik; "noto'g'ri" ko'plik; siniq ko'plik; statistik tahlil.

Abstract. The modern Persian and Dari languages express the categories of nouns through morphology, specifically the plural and the postpositive article. This article investigates the plural forms and their functioning in these languages. The systematisation of plural forms in Persian and Dari spurred attempts to distinguish types and varieties. Currently, the division of all plural forms into "correct" and "incorrect" is preferred. There are two correct plural forms in Persian: one with the suffix "ان" and the other with "ها". The latter is more commonly used and can form the plural of any noun. The former is limited to a specific group of nouns, especially personal names. Historically, "ها" has been more prevalent than "ان", even though the latter is the more ancient suffix. In early New Persian, "ان" was actually more common than "ها". While the suffix "ها" is considered universal in Modern Persian and Dari, the analysis of the materials indicates that the issue regarding the stylistic differentiation of the plural forms is intricate. Additionally, Arabic has lent irregular plural forms to the language. For some scholars, "irregular" is synonymous with "broken" plural forms of Arabic words. Statistical analysis results demonstrate that the "correct" and "incorrect" plural forms in modern Persian and Dari may function as synonyms or diverge semantically and stylistically in word combinations. Additionally, the transformation of broken plural Arabic words into words with abstract or alternative meanings has been observed.

Keywords: Persian and Dari languages; plural forms; "correct" and "incorrect" plural forms; broken plural form; statistical analysis.

Аннотация. В современном персидском и дари языках морфологически выраженными категориями существительных являются только число и постпозитивный артикль. В статье изучены категория числа и их функционирование в данных языках. Была необходимость в систематизации форм множественного числа в персидском и дари языках, поэтому делались попытки выделить виды и разновидности. В настоящее время предпочтение отдается делению всех форм множественного числа на «правильные» и «неправильные». Правильных форм множественного числа две: с суффиксами ان и ها. Из них более употребительна форма с ها. Эта форма может оформлять множественное число от любого существительного без исключения. А суффикс ان оформляет ограниченную группу имен, преимущественно личных. Преобладание формы ها над ان сложилось исторически, а на самом деле ان более древний суффикс, чем суффикс ها. В раннем новоперсидском языке ان был более распространен, чем ها. Хотя универсальность суффикса ها отмечается в современном персидском и дари языках, анализ материалов показывает, что вопрос о стилистическом размежевании форм числа очень сложен. Неправильные формы множественного числа заимствованы из арабского языка. Некоторые исследователи употребляют термин «неправильные» в качестве синонима «ломаных» форм множественного числа арабских слов. Результаты статистического анализа функционирования форм «правильного» и «неправильного» множественного числа в современном персидском и дари языках показывает, что они могут выступать как синонимы, различаться стилистически в словосочетаниях или получить семантическое расхождение. Также прослеживается превращение арабских слов в форме ломаного множественного числа в слова с отвлеченным или каким-либо другим значением.

Ключевые слова: персидский и дари языки; категория числа; «правильные» и «неправильные» формы множественного числа; форма ломаного множественного числа; статистический анализ.

Kirish

Fors va dariy tillarida otlarning morfologik jihatdan ifodalangan kategoriyalariga son kategoriyasi va aniqlik artikli kiradi.

Son kategoriyasi nafaqat otlar, balki ot-sifat, sifatdosh, ayrim sifat, son va olmoshlarga ham xos. I.A. Smirnova eroniy tillarda son kategoriyasini tadqiq qilib, shunday yozadi: “Son kategoriyasi fors tilida ikki turda, birlik va ko‘plik shakldadir” (11, 62).

Fors va dariy tillarida ikkilik shakli ham mavjud bo‘lib, u arab tilidan o‘zlashgan so‘zlardagina uchraydi: طرفين *tarafeyn/tarafayn* ‘ikkala tomon’ – والدين *vāledeyn/wāledayn* ‘ota-ona’. Arab ikkilik shakli fors va dariy tillari son paradigmasiga kirmaydi.

Otlarning birlik shakli so‘zning boshlang‘ich shakliga to‘g‘ri keladi. Ko‘plik shakl bir necha struktur ko‘rinishga ega. Qiyoslang: كتابها ‘kitoblar’, مردان ‘erkaklar’, انقلابيون ‘inqilobchilar’, باغات ‘bog‘lar’, دستجات ‘guruhlar’, حكايات ‘hikoyalar’, معلمين ‘o‘qituvchilar’, جمالات ‘jumlalar’, بندگان ‘qullar’, شعرا ‘shoirilar’.

Otlarda ko‘plik son shakllarini bir tizimga solish zarurati tufayli ularning turlari hamda struktur ko‘rinishlarini ajratishga harakat qilingan. Hozirgi paytda ko‘plik shakllari “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” deb ajratilgan. Ular fors va dariy tillari nuqtai nazaridan noto‘g‘ri hisoblansa-da, arab tili nuqtai nazaridan to‘g‘ri.

Maqolada fors va dariy tillarida “to‘g‘ri” ko‘plik; “noto‘g‘ri” ko‘plik shakllari, ularning o‘zaro nisbati va qo‘llanilishiga doir masalalar o‘rganilgan.

Asosiy qism

Ko‘plik sonning to‘g‘ri shakli ikkita: ان va ها suffikslari orqali ko‘plik yasaladi. Bulardan ها suffiksi eng ko‘p ishlatiladi. Shuning uchun ها universal sanaladi. Bu shakl har qanday turdagi otdan ko‘plik yasay oladi. ان suffiksi cheklangan miqdorda, asosan shaxs otlaridan ko‘plik yasaydi.

ها shaklining ان dan ustunligi tilning tarixiy taraqqiyoti natijasidir, aslida ان suffiksi ها ga nisbatan qadimiy hisoblanadi (9, 103). M.H. Yaminning qayd qilishicha, klassik tilda ان suffiksi XIII asrga qadar sermahsul bo‘lgan va inson, jonzot, shuningdek, boshqa narsa-predmet nomlariga qo‘shilgan (12, 6).

Yangi fors tilining boshlang‘ich davrida ان suffiksi ها ga nisbatan keng tarqalgan. Keyinchalik ها orqali otlarning barcha turlaridan ko‘plik yasala boshladi: ایرانیها ‘eronliklar’, عكسها ‘fotosuratlar’, گذارشها ‘hisobotlar’. ها suffiksining faollashuvi natijasida ان shaklining qo‘llanilishi kamaydi, lekin butunlay iste‘moldan chiqib ketmadi; ayrim so‘zlar ikki xil ko‘plik shakliga ega: دختران – دخترها ‘qizlar’, زنان – زنها ‘ayollar’. Bu holat nazariy (amaliy emas) jihatdan shunday baholanadi. ان va ها suffikslari uzoq vaqtlardan grammatik sinonimlardir.

ان suffiksi bir necha fonetik variantlariga (گان , یان , وان) ega. گان variantidagi g qadimgi eroniy tildagi -ka (< k < g (unlidan so‘ng))dan kelib chiqqan. Yangi fors tili davrida birlik shakldagi bunday so‘zlarda g tovushi so‘z oxirida tushib qolgan. Ko‘plik sonda esa bu tovush saqlanib qolgan: u so‘z asosining elementi sifatida qabul qilinmay, ko‘plik son suffiksiga birikkan. Natijada گان varianti a (hozirgi fors tilida – e) bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladigan bo‘ldi.

يان variantlari yuzaga kelishining fonetik sabablari ham ko'rsatiladi (so'z oxirida ikki unli qator kelishining yo'qolishi, ohangdorlik). Shuni aytish kerakki, klassik tilda bir so'zga turli ko'plik affikslari qo'shilgan: دانان *dânâân* – دانایان *dânâyân*, ترسا ان *tarsâân* – ترسایان *tarsâyân* (12, 9). Hozirgi fors va dariy tillarida bu o'rinda faqat يان - *yân* ishlatiladi. Klassik tilda oxiri undosh bilan tugagan bir necha so'zlarda ko'plik yasovchi bu suffiks -*iyân* shaklida uchraydi: سال يان *sâliyân*, ماه يان *mâhiyân* (9, 104–105).

Noto'g'ri ko'plik son shakllari arab tilidan o'zlashgan. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan "noto'g'ri" termini arabcha so'zlarning "siniq" ko'plik shakliga sinonim sifatida ishlatiladi: كتاب 'kitob' – کتب 'kitoblar'. Ba'zan esa arab tilidan o'zlashgan barcha ko'plik son shakllarini noto'g'ri ko'plik shakliga kiritadilar. I.K. Ovchinnikova ko'plik songa doir ishlarida bu terminni shu ma'noda hamma arabcha ko'plik shakllariga nisbatan ishlatadi (8, 67–71).

Arab ko'plik suffikslari:

1) جات / ات ham arab, ham arabcha bo'lmagan so'zlarga qo'shiladi: پرزه جات 'idoralar', ادارات 'idoralar', جنگلات 'xabarlar', اطلاعات 'detallar' (tex.), میوه جات 'mevalar', روزنامه جات 'gazetalar', تلگرامات *telgeramât* (dariy) – *telegramât* (fors) [telegrammalar] (9, 108).

ات suffiksi orqali so'z yasaliishi kuzatiladi: کارات 'harakat', 'harbiy operatsiya'; معلوم 'ma'lum' – معلومات 'ma'lumotlar', 'informatsiya'.

ات suffiksining undosh bilan tugagan forsiy so'zlarga qo'shilishi ko'p uchraydi: باغات 'bog'lar', دهات 'qishloqlar', نمایشات 'namoyishlar';

2) ين suffiksi, odatda, erkak jinsidagi shaxs nomini bildiruvchi arabcha so'zlarga qo'shiladi: مأمورین 'ma'murlar', 'chinovniklar', مورخین 'tarixchilar', معلمین 'o'qituvchi erkaklar', مهندسين 'injenerlar', مترجمين 'tarjimonlar'.

Fors va dariy tillarida arab tilidan o'zlashgan مؤنث va مذکر rodga taalluqli otlarning ayrimlari arabcha ko'plik shaklida ham jins xususiyatini saqlab qolgan. Masalan, متعلمه 'o'quvchi qiz' – متعلمات 'o'quvchi qizlar', متعلم 'o'quvchi bola' – متعلمين 'o'quvchi bolalar' kabi;

3) ون suffiksi *i* unlisi bilan tugagan shaxs nomini bildiruvchi ba'zi arab so'zlariga (مذکر dagi) qo'shiladi: روحانیون – روحانی 'ruhoniylar', ارتجاعیون – ارتجاعی 'reaksionerlar'. Bu suffiks cheklangan miqdorda ishlatiladi.

4) siniq ko'plik asos tarkibidagi unlilarning o'zgarishi orqali yasaladi va 30 dan ortiq shaklga ega. Suffiks orqali yasalgan noto'g'ri ko'plik va siniq ko'plik son shakllari fors va dariy tillarida to'g'ri shakllar bilan bir qatorda ishlatiladi. Masalan:

حاضر 'ishtirok etuvchilar' – حضار – حاضرین – حاضرها – حاضران so'zidan).

شاعر (so'zidan) 'shoirilar' – شعرا – شاعرها – شاعران

Bu kabi so'zlarning miqdori ko'p. Mutaxassisarlarni yuqoridagi kabi sinonimlarning nafaqat shakl, balki mazmunan qo'llanilishi ham qiziqitirib keladi. Aniq bir vaziyatda ulardan qay birini tanlash lozim, sinonimlar uslub jihatidan neytralmi, o'zaro almashina oladimi, degan savol tug'iladi. Bundan quyidagi vazifalar kelib chiqadi: 1) "to'g'ri" ko'plik shakllarining ishlatilishini qiyosiy o'rganish; 2) "to'g'ri" ko'plik; "noto'g'ri" shakllarning ishlatilishini qiyosiy o'rganish.

Zamonaviy tilshunoslikda bunday hollarda statistik tadqiqotlar o'tkazish talab qilinadi. Tadqiqotlar avvalida oddiy hisob-kitob qilib, foiz chiqarilgan bo'lsa, keyingi yillarda matematikaning ehtimollik nazariyasi asosida maxsus formulalar bilan ish olib borilmoqda.

ha -hâ li otlar va an -ân li otlar. ha ko'plik son suffiksining universalligi haqida so'z ketganda, uning hamma leksemalar bilan qo'llanilishini e'tiborga olish kerak bo'ladi. Biroq materiallar tahlili ko'plik son shakllarini stilistik chegaralash masalasi jiddiy ekanligini ko'rsatadi. Masalan, دوستها *dusthâ /dôsthâ* 'do'stlar' deyish mumkin, lekin, odatda, دوستان *dustân/ dôstân* ishlatiladi (yoki دشمنان *došmanân* 'dushmanlar'). Forslar کسها *kasha* 'odamlar' deyish mumkin, deb hisoblaydilar, biroq ayni vaqtda کسان *kasân* so'zini qo'llaydilar.

O'tgan asrning 60-yillarida I. K. Ovchinnikova ko'plik shakllarining ishlatilishiga doir statistik tadqiqotida ko'plik sonning "to'g'ri" usulini o'rgangan. Natijada: 1) kishi nomlari uchun 40-46% – an suffiksi, qolgan hollarda esa – ha; 2) inson tanasi juft a'zolari nomlarida 32-45% – an, qolgan hollarda – ha suffiksi; 3) beaql jonzoqlar nomlari uchun 9,5-28,5% – an, qolgan o'rinlarda esa – ha suffiksi ishlatilishi aniqlangan.

I.K. Ovchinnikova otlarni ko'plik yasash usuliga ko'ra ha -hâ li otlar va an -ân li otlar guruhlariga bo'ladi (8, 67-71).

ha -hâ li otlar:

1) konkret jonsiz predmet nomlari: میزها 'stollar', بکسها 'portfellar', آبها 'suvlar', دریاها 'daryolar', خانه ها 'uyalar', شرابها 'vinolar';

2) yevropacha o'zlashmalar: کمونیست ها 'kommunistlar', لیدرها 'boshliqlar', فوتبالیست ها 'futbolchilar';

3) atoqli otlar: خسرو روزبه ها 'Xusrav-Ruzbehlar', مصدقها 'Mosaddeqlar', Hofizlar, سعدی ها 'Sa'diylar';

4) -ak suffiksiga etimologik jihatdan bog'liq bo'lmagan -a / -e tovushiga tugallangan otlar: راجه ها 'rojalar' (Hind rojalari), رقاصه ها, 'raqqosalar', zamondoshlar, همدره ها;

5) millat, elat nomlari: فارسها 'forslar', روسها 'ruslar', انگلیسها 'inglizlar', عربها 'arablar'; lekin کردها va کردان 'kurdlar', افغانان va افغانها 'afg'onlar' ishlatilishi mumkin;

6) ayrim leksemalar – shaxs otlari: شخصیت ها 'shaxsiyatlar', آخوندها 'oxundlar', خانمها 'xonimlar';

7) mavhum otlar, shuningdek, harakat nomlari; پرورشها 'tarbiyalar', anduhlar, بودندنها 'bo'lgan narsalar'; biroq نمایشات 'ko'rgazmalar', گذارشات 'namoyishlar', ham uchraydi.

an -ân li otlar:

1) shaxs otlari: زنان 'ayollar', دختران 'qizlar', شاگردان 'o'quvchilar', دخترها – زنها; shuningdek, مردان 'erkaklar', کارگران 'ishchilar';

2) ayrim hayvonlarning nomlari: گوسفندان 'qo'ylar', شتران 'tuyalar', سگها – شترها – گوسفندها; shuningdek, itlar;

3) tananing juft a'zolari nomlari (دست 'qo'l', پای 'oyoq', گوش 'quloq', qoshlar, ابروان 'ko'zlar', چشمان 'lablar', لبان 'yonoq'dan tashqari'); گونه 'bilaklar', گیسوان 'o'rilgan soshlar'. (Kobul so'zlashuv tilida juft a'zolari ifodalovchi otlarga ha -hâ ko'plik suffiksi qo'shiladi. Insonning toq a'zolari faqat ha -hâ orqali yasaladi: بینی – بینیها 'burunlar', گردن – گردنها 'gardanlar';

4) ayrim o'simliklar nomlari: درختان 'daraxtlar', نرگسان 'nargislar' (lekin گلها 'gullar', مینها 'xrizantemalar'); shuningdek, درختها;

5) نده - qo'shimchasi bilan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshlari: 'o'quvchilar', 'qar'z beruvchilar'; bu o'rinda har doim آن suffiksi ishlatiladi;

6) o'tgan zamon sifatdoshlari: 'qoloqlar', 'zilziladan zarar ko'rganlar'.

Gazeta va jurnallarda bunday hollarda faqat گان uchraydi, badiiy adabiyotda esa ham گان, ham ها uchraydi: شاهزاده va شاهزادگان 'shahzodalar' (ان ko'proq uchraydi);

7) osmon jismlari, vaqt bo'laklari nomlari: 'yulduzlar', 'sayyoralar', 'kunlar', 'tunlar', 'yillar'. (A. Humoyun Farruxning yozishicha: "Bular – o'zgarish va yangilanish yuz beradigan predmetlardir" (13, 263). Biroq bu o'rinda ham ها orqali yasalishi mumkin: روزها, شېها va boshqalar);

8) ayrim leksemalar: 'gunohlar', 'so'zlar'.

Humoyun Farrux ان bilan yasalgan jonsiz predmet nomlariga ko'plab misol keltiradi: گمراگان, گمراگان, گمراگان va h. Bularni Hofiz, Xayyom, Sa'diy va boshqa shoirlarning she'rlarida qofiyaga solishning qiyinligi sababli "to'g'ri" yasalgan ko'plik shakl deb izohlaydi (13, 270).

ان -li va ها -li otlarning qo'llanilishi janr turlariga (gazeta, jurnal, ilmiy-ommabop adabiyot, badiiy matn) ko'ra turlicha. Janr jihatidan gazeta-jurnal va ilmiy-ommabop nashrlar tili o'zaro yaqin, badiiy adabiyot tili esa bulardan farq qiladi.

I. K. Ovchinnikova زن 'ayol' va مرد 'erkak' so'zlarining ko'plik shakllari ishlatilishi darajasini statistik tekshirib, quyidagicha natijalarni keltirgan.

Badiiy adabiyotda زن so'zi ko'plik sonda 64 marta uchragan; shulardan 51 tasida – 13, ها tasida – 13, an suffiksi bilan qo'llangan. Gazetada esa 70 ta holatdan 2 tasida – 68, ها tasida – 68, an bilan yasalgan.

Shuningdek, مرد so'zi badiiy adabiyotda 47 marta ko'plik shaklda uchragan; shulardan 29 tasida – 18, ها tasida – 18, an bilan kelgan. Gazeta matnida 97 holatdan ko'plik shaklida ishlatilgan مرد so'zi hammasida an bilan ishlatilgan (7).

Ko'rinadiki, fors (shuningdek, dariy) tili leksikasining ko'plik son shakllarida ishlatilishi janr xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'rganilmog'i lozim.

Ma'lumki, ها ning adabiy tilga kirib kelishi so'zlashuv tili orqali amalga oshgan. Y.A. Rubinchikning yozishicha, kundalik so'zlashuv tilida otlarning ko'plik shakllarida to'rtala suffiks (ون suffiksi kam hollarda)ning uchrashi qayd qilingan (10, 121). Biroq Jalol Ol-e Ahmad hikoyalarining (kundalik so'zlashuv tilida yozilgan) grammatik xususiyatlari tadqiqi forsha an suffiksi va arab ko'plik son shakllari deyarli kuzatilmaligini ko'rsatgan (6, 45).

"To'g'ri" ko'plik; "noto'g'ri" ko'plik shakllarining ishlatilish nisbatlari. Lug'atlarda, odatda, otlarning "noto'g'ri" usul bilan yasalgan ko'plik shakli birlik shakli yonida keltiriladi. Masalan, کتاب ketāb – ko'pligi kotob 'kitoblar'; نسخه nosxe ko'pligi nosax 'nusxalar'. Albatta, bu o'rinda aslida کتابها ko'plik shakli ko'proq ishlatiladi. Arabcha siniq ko'plik shakllari deyarli o'rta asrlardan boshlab lug'atdan lug'atga o'tib kelmoqda.

I.K. Ovchinnikova statistik tahlil natijasida quyidagi xulosa keladi:

1) “*noto‘g‘ri*” usulda yasalgan otlar ko‘plik shaklining ishlatilish darajasi turli matnlarda turlicha: uslub qay darajada kitobiy bo‘lsa, “*noto‘g‘ri*” ko‘plik shakl shuncha ko‘p uchraydi; purizm va turli mualliflarning uslublari alohida rol o‘ynaydi (masalan, M. Hejoziyning asarlarida “*noto‘g‘ri*” ko‘plik shakl Sodiq Hidoyatga nisbatan ko‘p ishlatilgan);

2) ko‘plik shakli faqat “*noto‘g‘ri*” usulda yasalgan arabcha so‘zlar 48% ni tashkil etadi (اصلاحات ‘reforma’, اطلاعات ‘xabarlar’ kabi);

3) ko‘plik shakli ham “*to‘g‘ri*”, ham “*noto‘g‘ri*” usulda yasalgan arabcha so‘zlar 27% ni tashkil etadi (حكايات – hikoyalar’, ساعات – soatlar’ kabi);

4) ko‘plik shakli faqat “*to‘g‘ri*” usulda yasalgan arabcha so‘zlar 25%ni tashkil etadi (بحرانها ‘krizislar’, استعدادها ‘iste‘dodlar’ kabi);

5) ko‘plik sondagi jami so‘zlardan “*noto‘g‘ri*”lari badiiy adabiyotda 4–9%, ilmiy va publitsistik matnlarda 50–60%ni tashkil etadi (8, 67–71).

Qisqasi, arabcha leksika o‘zga tildagi shaklni bir xil qabul qilmaydi. Yuqorida keltirilgan 3-band amaliy jihatdan o‘ziga xos. Ko‘plik son shakli masalasi, bir tomondan — janr, ikkinchi tomondan — birga qo‘shib qo‘llana olish bilan bog‘liq. Masalan, قرن ‘asr’ so‘zining har ikkala qarni va قرون ko‘plik shakllaridan birinchisi forsiy so‘z bilan (قرنهای دراز ‘uzoq asrlar’), ikkinchisi arabiy so‘z bilan (قرون وسطائی ‘o‘rta asrlar’) birikma tuzadi. So‘z birikmasi tarkibida kelmasa, har ikki shakl ishlatiladi.

Og‘zaki nutqda arabcha ko‘plik shakllar kam uchraydi. Aslida ko‘plik sonning “*to‘g‘ri*” ko‘plik; “*noto‘g‘ri*” shakllari ma‘no jihatidan farq qilmaydi, faqat uslubiy tafovutga ega. Biroq ba‘zan ayrim otlarning “*to‘g‘ri*” ko‘plik; “*noto‘g‘ri*” ko‘plik shakllaridagi ma‘nolari (ayniqsa, polisemantik so‘zlarda) o‘zaro mos kelmaydi. Masalan, دولت so‘zining ikki ma‘nosi bor: 1) davlat, 2) hukumat. “*Noto‘g‘ri*” usulda yasalgan ko‘plik – دول ‘davlatlar’ni bildirsa, “*to‘g‘ri*” ko‘plik shakli – دولتها ‘hukumatlar’ ma‘nosini bildiradi. Bunday holat, shuningdek, bir qator boshqa ko‘p ma‘noli so‘zlarda kuzatiladi (حرف , عامل , امتحان , ساعت , سد , دقیقه , قلم va h.k.).

Demak, ko‘plik sonning “*to‘g‘ri*” ko‘plik; “*noto‘g‘ri*” shakllari:

- 1) o‘zaro sinonim bo‘lib kelishi;
- 2) so‘z birikmalari tarkibida stilistik farqlanishi;
- 3) ba‘zan semantik tafovutga ega bo‘lishi mumkin.

Birlik va ko‘plikning o‘zaro munosabati. Ma‘lumki, sanaladigan otlarda birlik va ko‘plikning o‘zaro munosabati quyidagicha: ‘bitta – bir necha’. Otlarning birlik shakli morfologik ko‘rsatkichga ega emas, turdosh ot leksema muayyan kontekstdagina yakka predmetni bildiradi, o‘zicha esa son jihatdan noaniq bo‘ladi.

Demak, birlikning o‘zi songa nisbatan neytral (qiyoslang: دست ‘qo‘l’, bitta qo‘l, ikkita qo‘l; كلاء ‘telpak’, ‘telpaklar’). Ba‘zan predmet yakka emas, juft yoki muayyan tabiiy miqdorlarda tushuniladi: دست ‘qo‘l’, ‘qo‘llar’, لب ‘lab’, ‘lablar’, دستکش ‘qo‘lqop’, ‘qo‘lqoplar’, جوراب ‘paypoq’, ‘paypoqlar’, چشم ‘ko‘z’, ‘ko‘zlar’, دندان ‘tish’, ‘tishlar’ (masalan, Uning tishlari oq’).

Shunday qilib, birlik shakli birlik sonni va tabiiy miqdorni ifodalashi mumkin.

Jamlovchi otlar (اسم جمع *esm-e jam*) birlik shaklda ham bir xil predmetlarning to‘dasini, jamini (birdan ortig‘ini) bildiradi: 1) مردم ‘xalq’

(kollektiv birlik); 2) برنج ‘guruch’ (umumiy massa). Bunday otlarning ko‘plik shakli alohida-alohida ko‘plikni bildiradi: birlik-ko‘plik munosabati ajratish planida bo‘ladi. Masalan, مو ‘soch’ni bildirsa, موها ‘soch tolalari’ni, پول ‘pul’ni, پولها ‘ayrim pul birliklari’ni bildiradi, برنج ‘guruch’ (umumiy ma’noda) – برنج مردم ‘guruch donalari’, خالق ‘xalq’ – مردم ‘odamlar’ kabi.

Modda otlari (اسم جنس يا ماده) *esm-e jens ya mādde*) sanalmaydigan predmet oti guruhini tashkil qiladi. Ularning birlik shakli o‘sha moddaning umumiy massasini ifodalaydi; ko‘plik sonda quyidagilarni ifodalaydi:

1) navini, turini: شرابها ‘vinolar’ (turli sortlardagi), اردھا ‘unlar’ (turli navlardagi), پارچه ها ‘matolar’ (turli navdagi);

2) predmetni oydinlashtiradi (konkretlashtiradi): خاکها ‘aniq yerlar’ (خاکهای افغان ‘Afg‘on yerlari’);

3) o‘zga tildagi ko‘plik shaklini semantik va grammatik kalkalash: آبها ‘suvlar’ (آبهای خلیج فارس ‘Fors qo‘ltig‘i suvlari’).

Hozirgi zamon badiiy adabiyotida yozuvchilar tomonidan sanalmaydigan otlarning ko‘plik shakllari ishlatilgan ko‘plab misollarni keltirish mumkin: برفها ‘qorlar’, علفها ‘o‘tlar’, دودھا ‘tutunlar’, برنجه ‘xana’, iflos (narsalar), چركھا ‘paxtalar’, پنبه ها ‘guruchlar’, خناھا ‘xina’, بوھا ‘hidlar’, خاکھا ‘tuproqlar’, ريگھا ‘qumlar’, گندمھا ‘bug‘doylar’, دardھا ‘dardlar’ va h.k.

Siniq ko‘plikdagi arabcha so‘zlarning otlashuvi. Hozirgi fors va dariy tillarida siniq ko‘plikdagi arabcha so‘zlarning mavhum yoki boshqa ma’noli otga aylanishi kuzatiladi. Masalan, اطراف ‘atrof’ (طرف ‘taraf’), ايام ‘ayyom’ (ايام ‘axloq’ (خلق ‘xarakter’), رزق ‘rizq’ (رزق ‘oziq-ovqat’), اوڤات ‘o‘vqat’ (يوم ‘kun’), وقت ‘vaqt’ (وقت ‘kayfiyat’), va h.k. Bu o‘rinda birlik va ko‘plik shakllari bilan birga, turli ma’noli so‘zlarni ko‘ramiz.

Yuqoridagi kabi otlashish quyidagi hollarda ham yuz bergan: ارباب ‘arbab’ (سبب ‘sabab’), اسباب ‘asboblar’ (رب ‘xudo’ so‘zidan), خوق ‘huquq’ so‘zidan), مصلح ‘musalih’ (حق ‘huquq’ so‘zidan), مصلحت ‘maslahat’ so‘zidan), تشکيلات ‘tashkilot (muassasa)’ (تشکیل ‘tashkil qilish’) va h.k. Leksik ma’noning o‘zgarishi va birlik bilan ko‘plik son orasidagi uzilish tufayli ko‘plik shakl orqali ko‘plikning ifodalanishi to‘xtagan.

Shuningdek, ayrim forsiy so‘zlarning “to‘g‘ri” usulda yasalgan ko‘plik shakllari ham leksikalizatsiyaga uchragan: جان ‘jon’ (جان ‘jonon’ so‘zidan), پايان ‘oxiri’, tamom’ (پا ‘oyoq’ so‘zidan).

Xulosa

Fors va dariy tillarida ko‘plik son shakllari tadqiqida a) “to‘g‘ri” ko‘plik shakllarining ishlatilishini qiyosiy o‘rganish; b) “to‘g‘ri” ko‘plik; “noto‘g‘ri” shakllarning ishlatilishini qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiqligi oydinlashadi.

Hozirgi fors va dariy tillarida ko‘plik son shakllarini stilistik chegaralash muhim: bu masala janr turlaridan kelib chiqib o‘rganilmog‘i kerak.

Materiallar tahlili hozirgi fors va dariy tillarida “to‘g‘ri” ko‘plik shakllarining ishlatilishida ularning o‘zaro sinonim bo‘lib kelishi, so‘z birikmalari tarkibida stilistik farqlanishi yoxud semantik tafovutga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Shuningdek, siniq ko‘plikdagi arabcha so‘zlarning leksikalashuvi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимова Х.З. Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи. Филол. фан.номз. дисс. ... — Тошкент, 2005. — 139 б.
2. Алимова Х.З. Дарий тилида аффиксал сифат ясашиши.//Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. — № 3 (32). — Б. 10–27.
3. Алимова Х.З. Дарий тилида сифатдошларнинг отлашуви.//Ўзбекистонда хорижий тиллар. 2020. — № 5 (34). — Б. 10–19.
4. Alimova K. Dari Word-forming Transposition Phenomenon. International Journal of Pharmaceutical Research, December 2020, <https://cyberleninka.ru/article/n/dariy-tilida-fe-l-negizlarining-otlashuvi>
5. Akhmedova, D., Alimova, K., Azimdjano, D., Nuriddinov, N., & Xasanova, N. The stylistic features of nouns and adjectives in Iranian newspaper texts. 2022. pp. 95–102. <https://cyberleninka.ru/article/n/dariy-tilidagi-modal-tuzilmalarining-o-zbek-tiliga-tarjimasi-xususida-x-nda-m-taw-nam-tipi-misolida>
6. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. — Т.: ТашГИВ, 1994. — С. 45.
7. Овчинникова И.К. Категория числа в грамматической системе имен существительных современного персидского языка / Научная конференция по иранской филологии (тезисы докладов). — Л., 1962. — 215 с.
8. Овчинникова И.К. Об употреблении неправильных форм множественного числа в современном персидском языке (опыт статистического анализа) // Индийская и иранская филология. — М., 1964. — С. 67–71.
9. Основы иранского языкознания. Новоранские языки: западная группа, прикаспийские языки. — М.: Наука, 1982. — С. 103, 104–105. — С. 108.
10. Рубинчик Ю.А. О соотношении персидского литературного и обиходно-разговорного языка / Иранское языкознание. Ежегодник. — М., 1982. — 121 с.
11. Смирнова И.А. Формы числа имени в иранских языках. Значение и функционирование. — Ленинград, 1974. — 62 с.
12. محمد حسين يمّين. دستور تاريخی زبان فارسی دری. — کابل، ۱۳۷۶. — ص. ۶، ۹.
13. همایونفرخ عبدالرحيم. دستور جامع زبان فارسی. — تهران، ۱۳۳۹. — ص. 263.

References

1. Alimova, X. Z. *Dariy tilida somatizmlarning struktural va semantika tasnifi* (Structural and Semantic Classification of Somatisms in the Dari Language), candidate's thesis, Tashkent, 2005, 139 p.
2. Alimova X. 3. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 2020, No. 3, pp. 1–18.
3. Alimova X. 3. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 2020, No. 5, pp. 1–10.
4. Alimova K. *International Journal of Pharmaceutical Research* 2020, Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/dariy-tilida-fe-l-negizlarining-otlashuvi>

5. Akhmedova, D., Alimova, K., Azimdjanova, D., Nuriddinov, N., & Xasanova, N. *Kul'turologiya, iskusstvovedenie i filologiya: sovremennye vzglyady i nauchnye issledovaniya* (Cultural Studies, art History and Philology: Modern Views and Scientific research), 2022, 92–102 p. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/dariy-tilidagi-modal-tuzilmalarning-o-zbek-tiliga-tarjimasi-xususida-x-nda-m-taw-nam-tipi-misolida>
6. Mukhamedova N.A. *Teoreticheskaya grammatika persidskogo yazyka* (Theoretical grammar of the Persian language). Tashkent, 1994, 45 p.
7. Ovchinnikova I.K. *Kategoriya chisla v grammaticheskoy sisteme imen sushchestvitel'nykh sovremennogo persidskogo yazyka* (Plural forms in The Grammatical System of Nouns in Modern Persian), Scientific Conference on Iranian Philology (abstracts). Leningrad, 1962 215 p.
8. Ovchinnikova I.K. *Ob upotreblenii nepravil'nykh form mnozhestvennogo chisla v sovremennom persidskom yazyke (opyt statisticheskogo analiza)* (On the use of irregular plural forms in modern Persian (experience in statistical analysis), Indian and Iranian Philology. Moscow, 1964, pp. 67–71.
9. *Osnovy iranskogo yazykoznaniya. Novoiranskiye yazyki: zapadnaya gruppa, prikaspiyskiye yazyki* (Basics of Iranian linguistics. New Iranian languages: Western group, Caspian languages). Moscow, Nauka Publ., 1982, pp. 103–108.
10. Rubinchik Yu.A. *O sootnoshenii persidskogo literaturnogo i obikhodno-razgovornogo yazyka, Iranskoye yazykoznaniye. Yezhegodnik* (On the correlation between Persian literary language and everyday speech, Iranian Linguistics. Yearbook. Moscow, 1982, 121 p.
11. Smirnova I.A. *Formy chisla imeni v iranskikh yazykakh. Znachenie i funktsionirovaniye* (Form Plural Noun in Iranian Languages. Meaning and Function. Leningrad, 1974, 62 p.
12. Mohammad Hosayn Yamin. *Dastur-e taarixi-ye zabaan-e faarsi-ye dari*. Kaabol, 1376, pp. 6–9.
13. Homaayun Farrox Abdolrahim. *Dastur-e jaame-e zabaan-e faarsi*. Tehraan, 1339, 263 p.